

KOREYS VA O‘ZBEK NUTQIY ETIKETIDA KECHIRIM SO‘RASH BIRLIKLARINING XUSUSIYATLARI

Abdushukurova Dilfuza Dilshod qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Koreyashunoslik oliy maktabi 1-kurs magistranti.*

Annotatsiya: *Maqolada Koreya va O‘zbekistonning nutqiy etiketidagi kechirim so‘rash birliklari, ularning pragmatik tahlili orqali, turli madaniyatlardagi kechirim so‘rash birliklarining o‘xshashliklari hamda farqlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy etiket, jamiyat, kechirim, hurmat, muloqot, madaniyat, tafovut.*

Abstract: *The article examines the apology units in Korean and Uzbek speech etiquette, their pragmatic analysis, and the similarities and differences between apology units in different cultures.*

Key words: *speech etiquette, society, forgiveness, respect, communication, culture, differences*

Аннотация: *В статье рассматриваются единицы извинения в корейском и узбекском речевом этикете, их прагматический анализ, а также подчеркиваются сходства и различия между единицами извинения в разных культурах.*

Ключевые слова: *речевой этикет, общество, прощение, уважение, коммуникация, культура, разница.*

Kirish. Nutqiy etiket - bu insonlar o‘rtasidagi muloqotda madaniyat, axloq va an‘analarga asoslangan turli ijtimoiy va madaniy qoidalar tizimidir. Har bir xalqning nutqiy etiketida o‘ziga xos an‘analar, ijtimoiy rollar va munosabatlar mavjud. Til etiketi yoki nutqiy etiket salomlashish jarayonida, ruxsat so‘ralganda, biror narsa so‘rash maqsadida, biror kishiga murojaat qilganda to‘g‘ri ohangdan foydalangan holda xushmuomalalik bilan ishlatiladigan iboralar va so‘zlardir. Muloqot jarayonida ishlatiladigan har bir so‘z yoki ibora millat madaniyatini ko‘rsatib turadigan oyna hisoblanadi. Shunday ekan nutqiy etiket bu jamiyatning, qolaversa millatning bir bo‘lagi hisoblanadi va shu bilan bir qatorda o‘zgaruvchidir. Nutqiy etiket individual madaniyatga, qadriyatlarga ko‘ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta‘sirida bolalikdan shakllana boradi.

Koreys nutqiy etiketi va kechirim so‘rash. Koreys jamiyatidagi etiket qoidalari bir tomondan milliy an‘analar ikkinchi tomondan esa konfutsiychilik axloqining kuchli ta‘siri bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra kechirim so‘rashning ham shakllari ko‘p. Koreyada kechirim so‘rash bir nechta omillarga bog‘liq. Jumladan,

- yosh tafovuti;
- ijtimoiy mavqeyi,
- vaziyatning qay darajada jiddiyligi va shu kabilar.

Koreys tilida kechirim so‘rashning eng ko‘p ishlatiladigan birligi – “미안하다” (mianhada) yoki “죄송하다” (joesonghada) iboralari hisoblanadi. “미안하다” so‘zi asosan kichik va norasmiy kechirim so‘rash holatlarida ishlatiladi, “죄송하다” esa rasmiy va jiddiy kechirim so‘rash holatlarida ishlatiladi. Jumladan,

1. 시현: “죄송합니다. 이분이 처음이라..... 비닐봉지에 담아드릴게요.” (김호연. 불편한 편의점, 76 쪽)

Bu vaziyatda sotuvchi va mijoz o‘rtasidagi suhbat ifodalangan. U odamning do‘konga kirgan hurmatli mehmon va yoshini hisobga olgan holda sotuvchi aynan “죄송합니다” so‘zidan foydalangan.

2. 시현: “독고 씨. 어쨌거나 봉지 안 준 건 잘했어요.”

독고: “미, 미안해요. 내가..... 까먹었어요. 시현 씨가..... 분명 가르쳐줬는데.....”

시현: “미안할 건 아니고, 다음부터 잊지 마세요. 그리고..... 아무리 제이에스예요” (김호연. 불편한 편의점, 77 쪽)

Bu vaziyatda esa suhbatdoshlarning ikkalasi ham mavqeyi bir xilligi hamda kechirim so‘rayotgan odamning yoshi suhbatdoshidan kattaligi uchun shu ifodadan foydalangan.

Koreyada kechirim so‘rash nafaqat so‘z bilan, balki hatti-harakatlar bilan ham ifodalanadi. Masalan, bosh egish, qo‘lni kaft bilan pastga qarab ushlab kabi jismoniy harakatlar ham insonning kechirim so‘rayotganligini anglatadi. Bundan tashqari mevalar ham kechirim so‘rash, sevgi ramzlarini ifodalash mumkin. Koreya madaniyatida olma kechirim ramzi. Qandaydir inson sizga olma sovg‘a qilib “제 사과 받아 주세요” ifodasidan foydalansa, bu uning uzrini qabul qilishingizni so‘rayotganini anglatadi.

O‘zbek nutqiy etiketi va kechirim so‘rash. O‘zbek madaniyatida kechirim so‘rashning an‘analari ko‘p jihatdan hurmatga, o‘zaro munosabatlarga, va ehtiyotkorlikka asoslanadi. O‘zbeklar asosan, o‘zaro so‘zlashuvda bevosita va ochiq so‘zlardan ko‘ra, mehr-muhabbatga asoslangan ifodalardan foydalanadilar. Bundan tashqari o‘zbeklar nafaqat o‘z aybini tushunib, uzr so‘raydilar balki, o‘zini oqlash uchun ham kechirim so‘rashadi. Odatda insonlar biror kishidan kechirim so‘raganda muloqotlari davomida qo‘l harakatlari, bosh harakatlari, tana harakatlari orqali o‘z fikrlarini bayon etishadi. Bunda imo ishoralar muloqot davomida belgilangan ma‘noga ega bo‘lishi, ekspressivligi ya‘ni nutqning ifodaliligini yo‘qotmasligi lozim. Shu bilan birga, inson kechirim so‘rash jarayonida ohangga ham e‘tibor beradi. Chunki insonning qaysi holatda kechirim so‘rashi

va qanday ohangda kechirim so‘rashi turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Bir insonning boshqa bir insondan kechirim so‘raganda uning nutqiy muloqotida ishlatiladigan *uzr, afv eting, kechirasiz* birliklari ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbeklarda ham kechirim so‘rash jarayonida yosh tafovutlariga e‘tibor beriladi. Masalan:

1. Bir chekkada cho‘kkalab ko‘z yosh bilan ibodat qildim. Qo‘larimni ko‘tarib, “Afv et dedim. [2]

2. Uzr so‘rayman. Aytdim -ku meni kechiring. [2]

Bundan tashqari “*bir qoshiq qonimdan keching*” iborasi ham aynan kechirim so‘rash ma’nosini ifodalaydi. Bu asosan tarixda katta amaldorlar, podshohlar oldida ishlatilgan. Jumladan:

Boy ota Suyarning gunohini men sizdan so‘radim. Bir qoshiq qonidan keching [3]

XULOSA. Koreys va o‘zbek tillarida kechirim so‘rashni solishtiradigan bo‘lsak eng asosiy farq bu rasmiy va norasmiylikdadir. Koreya jamiyatida rasmiy va norasmiylikka qattiq e‘tibor beriladi. O‘zbek jamiyatida esa rasmiy va norasmiy holat uchun alohida belgilab qo‘yilgan me‘yorlar mavjud emas. Albatta har bir inson qarshisida turgan shaxsning mavqeyi, yoshini hisobga olgan holda muvofiq kechirim birliklaridan foydalanadi ammo o‘zbek jamiyatida rasmiyatchilikdan ko‘ra samimiyat biroz yuqori o‘rin egallaydi. Jamiyatimizda kechirim so‘rash insonlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda katta yordam beradi. Shuning uchun ham nafaqat o‘z ona tili, balki boshqa tillarda ham qaysi vaziyatda qanday kechirim so‘rash kerakligini bilish muhimdir. Jahon va o‘zbek tilshunosligida nutqiy etiket qoidalariga muvofiq so‘zlashish, ya’ni kechirim so‘rash, salomlashish kabi mavzularni ko‘p uchratmaymiz. Bunday mavzularni sinxron hamda diaxron aspektlar jihatidan o‘rganish kerak. Tarixda qanday holatda kechirim so‘ralganligi va bugungi kunda qanday o‘zgarganligini tahlil qilib, o‘rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Interconf.com./index/php/cad/article
2. Toirova G. The Important Of Linguistic Module Forms In The National Corpus //Zamonaviy Fan, Ta’lim va Tarbiyaning Dolzarb Muammolari (Elektron Ilmiy Jurnal), – Урганч. 2020, N°-5, – Б.155-166.
3. Toirova G. The Role Of Setting Im Linguistic Modeling // International Multilingual Journal Of Science And Technology. Issn: 2528-9810 Vol. 4 Issue 9, September – 2019. – P.722-723.
4. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 32 b.
5. 김호연. 불편한 편의점. 서울: 나무옆의자, 2021. 271쪽. (전자책)
6. Yusupova G.A. Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarining sotsiolingvistik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 55 b.